# 2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo’lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma’lumot

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 43045 tani tashkil etadi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar 37664 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-noyabr oylarida 8350 ta yangi tashkil etildi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 31774 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-noyabr oylarida 8035 ta yangi tashkil etildi**

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi 1099 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda**

**O'tgan yilga nisbatan 207 ta korxona va tashkilotlar tugatilishi ko'payganligi kuzatilgan**

| 43045 | 37664 | 8350 |
|---|---|---|
| Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilganlar |

# 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili. birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)






2019-yilning yanvar-oktabr oylarida 8350 ta yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni asosiy qismi mas‘uliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxonalarga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa oilaviy korxona hamda boshqa tashkiliy-huquqiy shaklarga to’g'ri keladi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




2019-yilning 1-noyabr holatiga 43,0 mingta korxonalar va tashkilotlar ro’yxatdan o’tgan bo’lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,1 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha jamiga nisbatan 24,9 % - savdo, 19,6 % - sanoat, 11,0 % - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 7,9 % dan - qurilish hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 3,5 % - tashish va saqlash, 1,5 % - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % - axborot va aloqa hamda 22,2 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha (10732 ta) savdo, (8437 ta) sanoat, (4717 ta) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, (3420 ta) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, (3417 ta) qurilish, (1487 ta) tashish va saqlash, (662 ta) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (597 ta) axborot va aloqa hamda (9576 ta) boshqa faoliyat turlariga to`g`ri kelmoqda.



# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 37,7 mingtani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7,3 mingta (23,8 %) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (4152 ta), Qibray (3490 ta) va Toshkent (2630 ta) tumanlari hamda Angren (2268 ta), Chirchiq (2147 ta) shaharlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ohangaron (908 ta), Oqqo'rg'on (978 ta), Piskent (1013 ta) va Piskent (1059 ta) tumanlari hamda Ohangaron (910 ta) va Nurafshon (974 ta) shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida 8350 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 4612 taga ko'pdir.**



2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

| Faoliyat turi | Ulushi |
|---|---|
| Savdo | 35,9 % |
| Sanoat | 20,7 % |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 10,0 % |
| Qurilish | 9,4 % |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 8,4 % |
| Tashish va saqlash | 3,5 % |
| Axborot va aloqa | 1,3 % |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1,1% |
| Boshqa turlari | 9,8 % |

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (2996 ta), sanoat (1725 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (834 ta) va qurilish (788 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (93 ta), axborot va aloqa (106 ta) hamda tashish va saqlash (291 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | |
|---|---|
| Savdo | 2996 |
| Sanoat | 1725 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 834 |
| Qurilish | 788 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 702 |
| Tashish va saqlash | 291 |
| Axborot va aloqa | 106 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 93 |
| Boshqa turlari | 815 |

# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Zangiota (1241 ta), Qibray (678 ta), Toshkent (587 ta) tumanlari va Angren (515 ta) shahri hissasiga to’gri keladi. Aksincha, Piskent (178 ta), Ohangaron (180 ta), Bekobod (216 ta) tumanlari hamda Ohangaron (173 ta), Nurafshon (219 ta) shaharlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko’rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2017-2019-yillarning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**




Korxonalar soninig o'sishi, birlikda

# TIJORAT KORXONALARI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko’rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 32,0 mingtani tashkil qildi

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona




Unitar korxona




Aksiyadorlik jamiyati




Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 1099 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 300 taga yoki 37,5 % ga o’sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog’iston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi hissalariga to’g’ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**







Faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi Xitoy Xalq Respublikasiga - 25,8 %, Rossiya Federatsiyasiga - 14,6 %, Turkiya Respublikasiga - 11,6 %, Qozog’iston Respublikasiga - 9,6 % va Janubiy Koreya Respublikasiga - 7,1 % to’g’ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni soni shu davrining oxirgi besh yilligiga solishtirilganda 2 barobarga ko'payib, ularni soni 1099 taga etdi.

**2019-yil 1-noyabr holatiga**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 591 tasi qo'shma, 508 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.**




## Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Zangiota 137 ta (jamidagi ulushi 12,5 %), Qibray 113 ta (10,3 %), Yuqorichirchiq tumanlarida 85 tani (7,7 %) va Angren 85 ta (7,7 %), Chirchiq shaharlarida 76 ta (6,9 %) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'ka 7 ta (0,6 %), Bekobod 8 tadan (0,7 %), Oqqo'rg'on 9 ta (0,8 %), Piskent 15 ta (1,4 %), Chinoz tumanlarida 17 tani (1,5%) hamda Bekobod shahrida 18 ta (1,6 %) tashkil etgan.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Ko’rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish hamda axborot va aloqaga to’g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar






2019-yilning yanvar-oktabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 257 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 56 taga ko'paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 85 ta, Rossiya Federatsiyasi - 37 ta, Qozog'iston Respublikasi - 34 ta, Turkiya Respublikasi-28 ta va Koreya Respublikasi – 16 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

| Soni | Faoliyat turi |
|---|---|
| 133 ta | Sanoat |
| 53 ta | Savdo |
| 25 ta | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi |
| 17 ta | Qurilish |
| 7 ta | Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar |
| 3 ta | Tashish va saqlash |
| 2 ta | Axborot va aloqa |
| 2 ta | Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish |
| 15 ta | Boshqa turlar |

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 133 ta, savdoda 53 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 25 ta hamda 17 ta qurilish va 29 ta boshqa faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining yillar kesimida o'sish dinamikasi, birlikda



# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil 1-noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 31,8 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 28,0 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida 8,0 mingdan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 88,0 foizga ko'paygan.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi 2019 yil 1 noyabr holatiga



| • Eng katta ulushi | | • Eng kichik ulushi | |
|---|---|---|---|
| Zangiota tumani | 11,6 % | Bekobod tumani | 2,7 % |
| Qibray tumani | 9,3 % | Chinoz tumani | 2,6 % |
| Toshkent tumani | 7,4 % | Piskent tumani | 2,6 % |
| Angren shahri | 6,0 % | Ohangaron shahri | 2,5 % |
| Chirchiq shahri | 5,6 % | Oqqo'rg'on tumani | 2,5 % |
| O'rtachirchiq tumani | 5,6 % | Nurafshon shahri | 2,4 % |
| Yangiyo'l tumani | 5,6 % | Ohangaron tumani | 2,3 % |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 31,8 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 9,2 mingta (28,8 %) – savdo, 7,3 mingta (23,0 %) - sanoat, 4,0 mingta (12,6 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 2,9 mingta (9,2 %) - qurilish, 2,9 mingta (9,0 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 1,3 mingta (4,0 %) - tashish va saqlash, 0,5 mingta (1,6 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,4 mingta (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 3,3 mingtasi (10,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**

**10,3**



**Sanoat**

**21,4**



**Qurilish**

**9,8**



**Savdo**

**37,3**



**Tashish va saqlash**

**3,6**



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**8,7**



**Axborot va aloqa**

**1,0**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**

**1,1**



**Boshqa turlari**

**6,7**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko’p savdo 2994 ta, sanoat 1722 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 828 ta va qurilish 788 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada 83 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko’rsatishda 92 ta hamda tashish va saqlashda 291 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (1219 ta), Qibray (652 ta), Toshkent (575 ta) tumanlari va Angren (498 ta) shahri hissasiga to’g'ri keladi. Eng kam Piskent (158 ta), Ohangaron (176 ta) va Bekobod (210 ta) tumanlari hamda Ohangaron (164 ta) va Nurafshon (192 ta) shaharlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda







# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko’rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 35,7 % yoki 897 tasi sanoat, 22,9 % yoki 576 tasi savdo, 21,0 % yoki 528 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,3 % yoki 308 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 0,9 % yoki 23 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 18 tasi qurilish, 0,5 % yoki 13 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,4 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 5,5 % yoki 138 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda







# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %





Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i
Xasan Igamberdiyev
Tel.:71-230-86-84